



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI
SHOVOT TUMANI HOKIMINING
QARORI**

2022 - yil 17 - oktabr

733-12-177-Q/22

Shovot tuman hokimligi

**Shovot tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini
ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida**

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1993 y., 9-son, 320-modda*) “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi (*O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami, 2010., 52-son, 508-modda*) O‘zbekiston Respublikasi Qonunlariga va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 211 yil 4 apreldagi №101-sonli “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi Qaroriga (*O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to‘plami, (2011., 14-son, 138-modda)*) asosan Shovot tumani hududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimligi:

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

Sanitariya qoidalari va me‘yorlariga qat‘iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta‘minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (fuqarolik xizmati ko'rsatish boshqarmasi) hamda qabristonlarning ma'muriyati:

Xizmatlar uchun qat'iy belgilangan tariflar bo'yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko'rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini;

Qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo'lgan inshootlarni o'rnatish, ob'yektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta'minlasin.

4. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

5. Tuman hokimligining axborot xizmati bo'limi (S.Yuldoshev) tuman hokimligi bosh yuriskonsulti bilan hamkorlikda (Y.To'xtaboyev);

mazkur qarorni tuman hokimligining shovot tuman.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirsin;

obodonlashtirish boshqarmasi va tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun mohiyatini aholiga tushintirish ishlarini olib borsinlar.

6. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

7. Ushbu qaror ijrosining nazorati tuman hokimining o'rinbosari B.Otajonov zimmasiga yuklatilsin.

Shovot tumani hokimi



O.Artiqov

Shovot tuman hokimining
2022 yil 17 oktabrdagi
733-12-177-Q/22-son qaroriga
1-ilova

**Shovot tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini
ko'rsatish bo'yicha tariflar miqdori**

T/r	Xizmat turi	O'lchov birligi	Narxi
1.	Go'r qazish	1 o'ringa	122000
2.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o'ringa	bepul
3.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	
4.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o'rin/kunga	bepul